


X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023-yil 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 35 351 tani tashkil qildi. (2022- yil 1-iyulga nisbatan 110,8 % ga ko'pdir).

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
2023- yil 1- iyun holatiga iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo tarmog'ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 39,2 %), sanoat sohasida (20,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (11,1 %) va qurilishda (4,5 %) tashkil etilgan.

Hududlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar

	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun
Viloyat bo‘yicha jami	2 890	2 464
Namangan shahar	912	659
Mingbuloq	83	192
Kosonsoy	163	165
Namangan	153	101
Norin	198	138
Pop	133	186
To‘raqo‘rg‘on	173	191
Uychi	182	162
Uchqo‘rg‘on	254	209
Chortoq	221	181
Chust	235	141
Yangiqo‘rg‘on	183	139

2023-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Namangan shahrida – 659 ta, Uchqo‘rg‘on tumanida – 209 ta, Mingbuloq tumanida – 192 ta, Pop tumani – 186 ta, Chortoq tumanida – 181 ta, Kosonsoy tumani – 165 ta, Uychi tumani – 162 ta, To‘raqo‘rg‘on, Chust, Norin tumanlarida bu ko‘rsatkich o‘rtalari tashkil etgan. Eng past ko‘rsatkich Namangan tumanida 101 tani tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, %da**




2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko‘p ulushi Namangan shahrida – 26,7 %, Uchqurg‘on tumanida – 8,5 %, Mingbuloq tumanida – 7,8 %, To‘raqo‘rg‘on tumanida - 7,8 %, Pop tumanida - 7,5 %, Chortoq tumanida – 7,3 % va Kosonsoy tumanida – 6,7 % tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 69,7 % (2022- yil yanvar-iyul oylarida 70,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 264,3 mln. AQSH dollari (umumiyl eksport hajmining 44,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 116,5 mln. AQSH dollari (umumiyl import hajmining 71,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi

(2023- yil yanvar-iyun oylari holatiga, % da)



Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi (2023- yil yanvar-iyun)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10618,0	96,4
Sanoat	4068,3	47,6
Qurilish	2990,5	92,6
Chakana savdo	7933,6	94,0
Yuk tashish, mln. tonna	13,8	94,1
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	207,5	97,5

**2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi,
(%)da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
Viloyat bo‘yicha jami	47,6	92,6	65,0	70,4
Namangan shahar	61,0	91,8	44,1	68,8
Mingbuloq	29,8	100,0	83,4	35,0
Kosonsoy	46,7	80,2	80,7	47,3
Namangan tuman	74,2	100,0	80,4	91,5
Norin	85,0	100,0	81,7	92,1
Pop	75,4	71,2	70,6	83,0
To‘raqo‘rg‘on	9,7	91,5	73,2	51,5
Uychi	65,1	88,8	82,1	92,4
Uchqo‘rg‘on	27,8	100,0	78,3	90,2
Chortoq	100,0	100,0	79,3	93,1
Chust	29,9	100,0	77,4	68,1
Yangiqo‘rg‘on	100,0	100,0	84,4	95,6

Hududlar bo‘yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo‘rg‘on tumanlari (100,0 %) hamda Norin (85,0 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda –Mingbuloq, Namangan t, Norin, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on, 100, % Namangan sh, 91,8 %, To‘raqo‘rg‘on, t 91,5 % tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Yangiqo‘rg‘on (95,6 %), Mingbuloq (83,4 %), Uychi (82,1 %), Norin (81,7 %), Kosonsoy (80,7 %), tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Yangiqo‘rg‘on (95,6 %), Chortoq (93,1 %), Norin (92,1 %) Namangan t (91,5 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.